

**SHE'RIY MATNDA QO'LLANGAN METAFORIK BIRLIKLARNING USLUBIY
XUSUSIYATLARI (Iqbol Mirzo she'rlari misolida)**

Kabuljonova Gulbahor Komiljonovna

Andijon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi

Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

shoxistayoqubboyeva@gmail.com +998994060312

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7454771>

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub "Ko'nglingda nima bor, bilmayman" she'riy turkumida qo'llangan metaforalarning hosil bo'lish usullari haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda muallif she'rlarida qo'llangan metaforik birliklarning o'zaro farqli ma'noviy va shakliy xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: metafora, tasvir vositasi, uslub, differensial tahlil metodi, shakliy o'xshashlik, belgi o'xshashligi, harakat o'xshashligi.

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТАФОРИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ,
ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ
(на примере стихотворений Икбал Мирзы)**

Аннотация: в данной статье приведены способы формирования метафоры использованные в поэтическом цикле народного поэта Узбекистана Икбала Мирзо "Что в твоём сердце, не знаю" и сгруппированы по признаку. В статье использован метод дифференциального анализа, при котором метафорические единицы, используемые в стихотворении, анализируются по их взаимодействующим смысловым и формообразующим признакам.

Ключевые слова: метафора, средство изображения, метод дифференциального анализа, сходство фигуры, сходство символа, сходство движения.

**METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF METAPHORICAL UNITS USED IN
POETIC TEXT (as an example of Iqbal Mirza's poems)**

Annotation: in this article, the metaphors used in the series of poems of the People's Poet of Uzbekistan Iqbal Mirzo "I do not know what is in your heart" are divided into groups according to the methods and symbols of their formation. The article used the method of differential analysis, in which the metaphorical units used in the poem were analyzed according to their distinctive spiritual and formal features.

Keywords: metaphor, image tool, style, differential analysis method, formal similarity, character similarity, action similarity.

KIRISH

Metafora badiiy tasvir vositalaridan eng keng qo'llanadigani bo'lib, har qanday asar (hatto ilmiy)ni metaforik ma'nosiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham D.S.Xudoyberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o'xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, olimlari ularni matnning pretsedent

shakllari sifatida baholaydi¹ hamda kognitiv metaforalarning soʻz, soʻz birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga² ajratilishini qayd etadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Oʻzbek tilida poetik nutq leksikasini tadqiq etgan B.Umurqulov metaforalar borasida alohida toʻxtaladi hamda tilshunoslar: M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulov, R.Qoʻngʻurov, A.N.Kojin, K.A.Dolininning izohlariga³ qoʻshimcha tarzda, hozirgi oʻzbek poeziyasida uchraydigan poetik metaforalarni ikkiga boʻlib koʻrsatadi va ushbu guruhlarini:

- 1)umumpoetik metaforalar;
- 2)individual metaforalar deb nomlaydi.

Metafora soʻzning maʼno qirralarini namoyon qiluvchi muhim vosita sifatida tilda ilgari mavjud boʻlgan nomning yangi maʼno ifodalash uchun qoʻllanishida nominatsiya vazifasining bajarilmasdan, tinglovchiga taʼsir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi va tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ana shu maʼnoda olib qaraladigan boʻlsa, sheʼriy matnning hissiy-tasirchanligini oshirishda metaforik ifoda yuqori darajadagi uslubiy vosita ekanligi namoyon boʻladi.

Oʻzbek xalqining sevimli shoiri Iqbol Mirzo sheʼriyatini kuzatar ekanmiz, unda ona tilimizning boy, betakror lisoniy xususiyatlari goʻzal misralarda jilolanganligiga guvoh boʻlamiz. Xususan, shoir ijodida qoʻllangan metaforik maʼnolar bunga yorqin dalil boʻladi.

Iqbol Mirzo sheʼriyatida metaforik maʼno turli koʻrinishda namoyon boʻladiki, bu ijodkorning tafakkur doirasi kengligini, xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligini koʻrsatadi. Metafora juda keng miqyosli hodisa boʻlib, metaforik qoʻllangan soʻz sintaktik-stilistik chegaralarni bilmaydi. Iqbol Mirzo sheʼriyatida qoʻllangan metaforalar tanlanishiga koʻra matn mazmuniga toʻla mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, taʼsirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini oʻzida namoyon etadi. Metaforalar kitobxonni lirik qahramonning ichki olami, his-tuygʻulari, quvonch-u umidlari bilan tanishtiradi, uni ham oʻz ogʻushiga chorlaydi, oʻylashga majbur qiladi, shu bilan birga, unga cheksiz zavq bagʻishlaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Iqbol Mirzo ijodida qoʻllangan metaforalar badiiy pardozi boʻlibgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati toʻgʻrisida ham maʼlumot beradi. Shoir tilimizdagi mavjud metaforalardan foydalanish barobarida oʻzi ham original, yangi metaforalar yaratadi. Iqbol Mirzoning *“Koʻnglingda nima bor, bilmayman”* sheʼriy toʻplamidan joy olgan ayrim sheʼrlarida qoʻllangan metaforik tasvir ifodalarini quyidagi mezonlar asosida tahlil qilish mumkin.

1. Bir narsaning nomi boshqa bir narsaga shakliy oʻxshashlik asosida koʻchirilgan metaforik ifoda:

*Afsuski, shabboda sudragan xasman,
Kiyim oʻzimga tan, oʻzim sarmastman,*

¹ Худайбергенова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2015. –Б.18.

² Худойбергенова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, №3.

³Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Тошкент: Фан, 1990.

*Ko 'changizdan qaytib kuylab o'tmasman,
Azal menga shuni bitgan, afsuski (13-bet).*

Shoir ushbu misralarda o'zini bir "*shabboda sudragan xas*"ga o'xshatadi. *Xas*, bilamizki, shox-shabba va quruq cho'plarni anglatadi. Ana shu quruq cho'plar, shox-shabbalar shamolda uchib ketadi. Muallif *shamol* so'zining o'rnida *shabboda* so'zini qo'llash orqali badiiy tasvirning bo'yoqdorligini, poetikligini yanada oshirgan. *Shamol*, *shabboda* sinonimlari uslubiy jihatdan farqlanadi. Oshiqning *bir xasdek xolati* mazmunan mubolag'ali metaforani hosil qilgan. "*Sudramoq*" leksemasi esa oshiqning zabun holatini yanada bo'rttirishga, sevgi istiroblarini o'quvchi ko'z o'ngida yorqin gavdalantirishga xizmat qilgan. Mazkur she'riy matn parchasida shakliy o'xshashlikka asoslangan ko'chim turi yuzaga kelgan.

2. Bir narsaga xos belgining nomi boshqa bir narsaga ko'chiriladi.

*Ko'z qorasi – yurakdagi dog'lardan,
Soch qirovi o'tli-o'tli ohlardan.
Men do'stimni alqab so'z aytay desam,
Alpomishlar bo'zlab chiqar chohlardan (10-bet).*

Bilamizki, yosh o'tgan sari odamning sochlariga oq oralaydi, xuddi shu holat, ya'ni sochlarga oq tushishi esa rang belgisi jihatidan qirovga o'xshatilgan. *Qirov* esa havo ochiq, sokin tunlarda tuproq, o't va yerdagi narsalar ustida hosil bo'ladigan oppoq muz kristallari hisoblanadi. Ya'ni, *Soch qirovi o'tli-o'tli ohlardan* misrasida ifodalangan ko'chma ma'no belgiga asoslangan metaforik ma'no bo'lsa-da, aslida, bu belgining zamirida insonning qalb kechinmalari, hayot tashvishlari muhrlanganligi ham qo'shimcha planda anglashilib turadi.

3. Bir narsaga xos harakatning nomi boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi.

*Chorasizlik shu-da, bechoralik shu:
Tushingga izlaysan ta'bir va ma'ni.
Ammo tushga kirmas – senga qorong'u
Ichingda qanday dard pishayotgani (11-bet).*

MUHOKAMA

Pishmoq so'zining asl ma'nosiga e'tibor bersak, unda ovqat yoki biror taomning tayyorlanishi yoki tayyorlash jarayoni ma'nosi nazarda tutiladi. "*Dard pishmoq*" metaforik birikmasi esa ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, inson ruhiy olamiga xos o'y-xayollar, tuyg'ular va turli holatlarni ifodalab kelgan. Hayotda oldinda bizni nimalar kutib turganligini, qanday voqea-hodisalar sodir bo'lishini bilmaymiz, albatta. Yuqorida berilgan misralarda, ana shu holatni shoir "*dard pishayotgani*" birikmasini qo'llash orqali original metaforik ma'noni ifodalashga erishgan. Natijada, ovqat yoki taomga nisbatan qo'llaniladigan *pishmoq* leksemasi *dard* leksemasi bilan sintaktik aloqaga kirishib metaforik ifodani hosil qilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan metaforalarning birinchi va ikkinchisi badiiy adabiyotlarda uchratish mumkin bo'lgan *an'anaviy metaforalar* bo'lsa, uchinchi esa *individual*, *muallifga* xos metafora hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, metaforik ifoda antik davrlardan buyon san'at darajasida o'rganilib kelinayotgan bo'lishiga qaramay, xanuz uning mohiyat-mazmuni ko'plab ilmiy tadqiqotlar uchun muhim obyekt vazifasini o'tamab kelmoqda, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Metaforik ifoda juda murakkab va serqirra tasvir vositasi sifatida har qanday uslub va matnda keng qo'llanish

imkoniyatiga ega. Ayniqsa, she'riy matnda metaforik ma'no yanada bo'rttirilgan holda, ijodkor kechinmalarining "jon tomirida" yugurib yuruvchi sehrli kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Худойберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2015.
2. Худойберганава Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, №3.
3. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Тошкент: Фан, 1990.
4. Кабулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. ном. дисс. ... автореф. Тошкент, 2000.
5. Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor, bilmayman. – Toshkent: Sharq, 2020.